

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 fevraldagi

«Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to`g`risidagi nizomini tasdiqlash haqida»gi 135-sonli qarori to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolotlari to`g`risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to`g`risida»gi qonunlariga muvofiq hamda davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini yanada kuchaytirish maqsadida Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 fevraldagi «Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to`g`risidagi nizomini tasdiqlash haqida»gi 135-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.
- Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:
 - Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to`g`risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;
 - vazirliklar va idoralar uzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirish topshirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.
- Vazirliklar va idoralar uzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.
- Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.Jumanovga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:



[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat](#)

[xizmatlar](#)